



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2023- YIL YANVAR-IYUL OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-iyul oylarida)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8559,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 57,4 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 6,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2022- yil

B

0,6 %

2023- yil

B

0,7 %


Yanvar-iyul

Ishlab chiqaradigan sanoat

mln. so'm

Yanvar-iyul

FHI,% da



2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4918,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 57,4 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyul


55,4 %

2023- yil yanvar-iyul

57,4 %




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,0 % ni (2022- yilning yanvar-iyul oylarida – 5,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,1 % (3,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,7 % (17,0 %) va quyi texnologiyalisi – 71,3 % (74,2 %) ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2023- yil









Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,0 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 8,3 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 36,9 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,0 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 83,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *



* Yanvar-iyul oylari yirik korxonalar bo‘yicha



2023- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 11,2 ming tonna Etilen polimerlardan tayyorlangan qop va sumkalar (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,0 % oshgan), 1,0 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (59,8 % oshgan) hamda 14,3 ming tonna Kalava ip (3,0 % ga oshgan) ishlab chiqarish va o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	10471,0	2302,0	-8169
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	620,0	991,0	371,0
Etilen polimerlardan tayyorlangan qop va sumkalar, ming t.	10,9	11,2	0,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	38,3	22,2	-16,1
Paxta tolasi, ming t.	13,9	19,8	5,9


Yanvar-iyul oylari yirik korxonalar bo'yicha

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 33,1 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,2 % gacha ko'paydi, fizik hajm indeksi esa, 2,6 martaga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 12,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 84,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 15,6 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 408,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 19,9 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1507,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 70,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 69,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 14,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 145,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 16,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1148,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 71,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 %, fizik hajm indeksi 88,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 175,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 72,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 97,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 21,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 110,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi 130,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 244,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 53,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 78,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 54,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3549,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,5 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,8 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	9617,4	10029,6	412,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	141,9	85,5	-56,4

yanvar-iyul oylari yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 %) ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	26,6	25,9	-0,7
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	9,1	8,7	-0,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 1,2 % ga oshgan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 2,9 % ga kamayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1582,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 18,5 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-iyul

77,9%

2023- yil
yanvar-iyul

79,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-iyul

22,1%

2023- yil
yanvar-iyul

20,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,8 % (2022- yil yanvar-iyul oylarida 59,5 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 21,4 % , Guliston shahri 21,1 % , Yangiyer shahri 16,1 % hamda Sayxunobod tumani 8,7 % Boyovut tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (111,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Guliston tumani (229,7 %), Oqoltin tumani (181,8 %), Yangiyer shahri (146,8 %) hamda Sardoba tumani (143,0 %) qayd etildi.